

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№3

2026
MART



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 182 sahifa.
2026-yil, mart

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

KORXONALARDA ICHKI AUDIT TIZIMINING BOSHQARUV QARORLARI QABUL QILISHDAGI O'RNI	24
Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li	
FISKAL SIYOSAT SAMARADORLIGI VA SOLIQ TUSHUMLARI DINAMIKASI: O'ZBEKISTON MISOLIDA ILMIY TAHLIL	30
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI KELITIRIB CHIQUARUVCHI ASOSIY OMILLAR HAMDA IQTISODIYOTGA TA'SIRI	37
Toxtabayev Oybek Odilovich	
QISHLOQ XO'JALIGI OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA ZAMONAVIY BOSHQARUV	42
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
O'ZBEKISTON GLOBAL-IQTISODIY RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING O'RNI	48
Kuvatova Oliya Sheraliyevna	
QURILISH SANOATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING IQTISODIY MOHIYATI VA ULARNI KAPITAL BOZORI INSTRUMENTLARI ORQALI MOLIALASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	54
Igitov Jurabek Kuzibekovich	
IQTISODIY ISLOHOTLAR DAVRIDA TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING OMILLARI	61
Yangiboyev F.B.	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI ERTA ANIQLASH VA BOSHQARISHNING INTEGRATSIYALASHGAN RISK-INDEKS MODEL I	68
Kalandarov Abdulla Baxtiyorovich, Rajabov Shoxrux Suvon o'g'li	
RUX VA QO'RG'OSHINNI SELEKTIV AJRATIB OLISHNI KOMBINATSIYALASH TEXNOLOGIYASI VA NAZARIYASI.....	74
Eshonqulov Uchqun Xudaynazar o'g'li, Haqberdiyev Dilshod Qodir o'g'li	
UY-JOY QURILISHI HAJMINI UZOQ MUDDATLI PROGNOZLASHDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH	81
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	
O'ZBEKISTONDA BOG'DORCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA IQLIM VA TABIIY OFATLAR NATIJASIDA YETKAZILDAN TALOFATLARNI DAVLAT TOMONIDAN KOMPENSATSIYA QILISH MEKANIZMI.....	85
Sattorov Orifjon Boymurodovich	
AHOLI MOLIVAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH MEKANIZMLARI.....	90
Abdug'aniyev Uchqun Habibulla o'g'li	
O'ZBEKISTON QURILISH SANOATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING RIVOJLANISH DINAMIKASI VA TENDENSIYALARI	96
Musaeva Aynura Abayxolievna	
THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF SOCIAL INFRASTRUCTURE TRANSFORMATION IN THE CONTEMPORARY ENVIRONMENT.....	104
Normurodov Khusan Eshmakhmatovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING INVESTITSION FAOLLIGINI BAHOLASH YO'LLARI	108
Begamov S.X.	
DEBITORLIK QARZLARINING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL QILISH YO'NALISHLARI	112
Normatova Gulmira Xayrullaevna	



SOLIQLARNI PROGNOZLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH AMALIYOTI TAHLILI.....	118
Ergashov Jamshid Ashurovich	
MEHNAT XARAJATLARI HISOBİ: NAZARIY ASOSLAR, USULLAR VA BOSHQARUVDAGI AHAMIYATI	126
Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich	
KORPORATIV XIZMATLARNING BANK FOYDASIGA TA'SIRI: KOMISSION VA FOIZLI DAROMADLAR TAHLILI	131
Qurbonov Abror Abdullayevich	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA TASHKILIY MEXANIZMLARI.....	136
Djamalov G'ofir Oribjanovich	
OCHIQLIK INDEKSI VA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH SAMARADORLIGI: O'ZBEKISTON TAJRIBASINING INSTITUTSIONAL TAHLILI.....	144
Dilshod Pulatov, Uchqun Abdug'aniyev	
DUNYO SUG'URTA KOMPANIYALARINING MOLIVAVIY HOLATI VA NATIJALARI TAHLILI.....	153
Alimov Baxodir Batirovich	
QISHLOQ HUDUDLARIDA XIZMAT KO'RSATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	160
Yuldashova Nilufar Ziyabayevna	
QURILISH TASHKILOTLARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION USULLARI.....	164
Muxibova Guli Yarkinovna, Sharifxodjayeva Odina Ulug'bek qizi	
AXBOROT-RESURS MARKAZLARINING TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRINI BAHOLASH	168
Pirmedova Xayitgul Muxammedovna	
IJTIMOIIY HIMOA QAMROVINI KENGAYTIRISH MEXANIZMLARI: XALQARO TAJRIBA VA INSTITUSIONAL YONDASHUVLAR.....	173
Bafoyev Farrux Jo'raqulovich	



IJTIMOY HIMOYA QAMROVINI KENGAYTIRISH MEXANIZMLARI: XALQARO Tajriba va INSTITUSIONAL YONDASHUVLAR

Bafojev Farrux Jo'raqulovich

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Ijtimoiy himoya milliy agentligining Navoiy viloyati boshqarmasi
Ijtimoiy xizmatlar ko'rsatilishini monitoring qilish sho'basini boshlig'i
NDKTU mustaqil izlanuvchisi
ORCID: 0009-0009-0655-3486

Annotatsiya. Mazkur maqolada ijtimoiy himoya tizimi qamrovini kengaytirish mexanizmlari hamda ushbu sohada qo'llanilayotgan xalqaro institutsional yondashuvlar tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO), Xalqaro ijtimoiy ta'minot assotsiatsiyasi (ISSA) va Jahon banki tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy himoya siyosatlarini hamda metodologik yondashuvlar o'rganilgan. Maqolada mehnat bozoridagi institutsional farqlar, norasmiy sektor ulushining yuqoriligi hamda ijtimoiy sug'urta mexanizmlarining cheklanganligi ijtimoiy himoya qamrovining yetarli darajada kengaymasligiga sabab bo'layotgan omillar sifatida tahlil qilingan. Shuningdek, xalqaro amaliyotda ijtimoiy himoya tizimi qamrovini kengaytirishga qaratilgan institutsional mexanizmlar, jumladan, moslashuvchan ijtimoiy sug'urta sxemalari, ma'muriy jarayonlarni soddalashtirish va raqamli boshqaruv instrumentlarini joriy etish tajribalari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari ijtimoiy himoya tizimi inklyuzivligini ta'minlash, aholining turli guruhlarini mazkur tizimga jalb qilish hamda ijtimoiy siyosat samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy himoya, ijtimoiy himoya qamrovi, ijtimoiy sug'urta, xalqaro tajriba, institutsional mexanizmlar, ijtimoiy siyosat, norasmiy iqtisodiyot, ijtimoiy ta'minot.

Abstract. This article analyzes mechanisms for expanding social protection coverage and examines international institutional approaches applied in this field. The study explores social protection policies and methodological frameworks developed by the International Labour Organization (ILO), the International Social Security Association (ISSA), and the World Bank. The article analyzes institutional differences in labor markets, the high share of the informal sector, and the limited scope of social insurance mechanisms as key factors constraining the expansion of social protection coverage. In addition, international practices aimed at expanding social protection coverage are reviewed, including flexible social insurance schemes, simplification of administrative procedures, and the introduction of digital governance instruments. The results of the study provide scientific conclusions for ensuring the inclusiveness of social protection systems, increasing the participation of various population groups, and improving the effectiveness of social policy.

Keywords: social protection, social protection coverage, social insurance, international experience, institutional mechanisms, social policy, informal economy, social security.

Аннотация. В статье проанализированы механизмы расширения охвата системы социальной защиты, а также международные институциональные подходы, применяемые в данной сфере. В рамках исследования изучены политики социальной защиты и методологические подходы, разработанные Международной организацией труда (ILO), Международной ассоциацией социального обеспечения (ISSA) и Всемирным банком. В работе рассматриваются институциональные различия на рынке труда, высокая доля неформального сектора и ограниченность механизмов социального страхования как факторы, сдерживающие расширение охвата социальной защиты. Кроме того, исследуются институциональные механизмы, применяемые в международной практике для расширения охвата системы социальной защиты, включая гибкие схемы социального страхования, упрощение административных процедур и внедрение цифровых инструментов управления. Результаты исследования позволяют сформулировать научные выводы по обеспечению инклюзивности системы социальной защиты, расширению участия различных групп населения и повышению эффективности социальной политики.

Ключевые слова: социальная защита, охват социальной защиты, социальное страхование, международный опыт, институциональные механизмы, социальная политика, неформальная экономика, социальное обеспечение.

KIRISH

Bugungi kunda ijtimoiy himoya tizimi davlat ijtimoiy siyosatining muhim institutsional mexanizmlaridan biri hisoblanadi. U aholini iqtisodiy va ijtimoiy xavflardan himoya qilish, kambag'allikni qisqartirish, ijtimoiy tenglikni ta'minlash hamda barqaror iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy iqtisodiy tizimlarda ijtimoiy himoya mexanizmlari nafaqat ijtimoiy yordam vositasi sifatida, balki inson kapitalining rivojlanishini rag'batlantiruvchi hamda mehnat bozori barqarorligini ta'minlovchi muhim institutsional omil sifatida ham qaralmoqda.

Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy himoya tizimining samaradorligi ko'p jihatdan uning aholining qanchalik keng qatlamlarini qamrab olishi bilan bog'liq. Xalqaro mehnat tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyo aholisining sezilarli qismi hali ham to'liq ijtimoiy himoya mexanizmlari bilan qamrab olinmagan. Ayniqsa, norasmiy iqtisodiyotda faoliyat yurituvchi aholi, o'zini o'zi band qilgan shaxslar, mavsumiy ishchilar hamda kichik tadbirkorlar ko'p hollarda ijtimoiy himoya tizimi qamrovidan tashqarida qolmoqda. Bu holat ijtimoiy himoya tizimining inklyuzivligini cheklab, aholining ayrim qatlamlarini iqtisodiy xavflarga nisbatan yanada zaif holatda qoldirishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy himoya tizimi qamrovini kengaytirish zamonaviy ijtimoiy siyosatning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ko'plab mamlakatlarda aholining turli guruhlarini ijtimoiy himoya mexanizmlariga jalb qilish, norasmiy sektorda faoliyat yurituvchi aholini ijtimoiy sug'urta tizimiga integratsiya qilish hamda ma'muriy jarayonlarni soddalashtirishga qaratilgan institutsional islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda xalqaro tashkilotlar, jumladan, Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO), Xalqaro ijtimoiy ta'minot assotsiatsiyasi (ISSA) va Jahon banki tomonidan ishlab chiqilgan metodologik yondashuvlar muhim ilmiy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Xususan, mazkur tashkilotlar tomonidan ijtimoiy himoya qamrovini kengaytirishga qaratilgan bosqichma-bosqich institutsional modellar ishlab chiqilgan bo'lib, ular aholining turli guruhlarini aniqlash, mavjud ijtimoiy xizmatlar tizimini tahlil qilish, iqtisodiy va moliyaviy mexanizmlarni shakllantirish hamda ma'muriy jarayonlarni soddalashtirish kabi bosqichlarni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni joriy etish, ma'lumotlar bazalarini integratsiya qilish va ijtimoiy xizmatlarni raqamlashtirish ijtimoiy himoya tizimi qamrovini kengaytirishning muhim instrumentlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Shu bois ijtimoiy himoya qamrovini kengaytirish mexanizmlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, xalqaro tajribani o'rganish hamda institutsional yondashuvlarni baholash zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlar uchun dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Ushbu maqolaning maqsadi ijtimoiy himoya qamrovini kengaytirish mexanizmlarini tahlil qilish, xalqaro amaliyotda qo'llanilayotgan institutsional yondashuvlarni o'rganish hamda ijtimoiy himoya tizimining inklyuzivligini oshirish bo'yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ijtimoiy himoya tizimining shakllanishi va rivojlanishi iqtisodiy hamda ijtimoiy siyosat sohasidagi muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy himoya mexanizmlari, ularning institutsional tuzilishi va aholi farovonligiga ta'siri ko'plab iqtisodchi va sotsiolog olimlar tomonidan o'rganilgan. Ayniqsa, ijtimoiy davlat konsepsiyasi, ijtimoiy sug'urta tizimi hamda ijtimoiy himoya qamrovini kengaytirish masalalari zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda muhim o'rin tutadi.

Ijtimoiy himoya tizimining nazariy asoslari XX asr o'rtalarida shakllana boshlagan. Xususan, britan iqtisodchisi Uilyam Beverij o'zining 1942-yilda nashr etilgan "Social Insurance and Allied Services" asarida ijtimoiy sug'urta tizimini aholini asosiy ijtimoiy xavflardan himoya qilishning universal mexanizmi sifatida asoslab bergan. Uning konsepsiyasiga ko'ra, davlat aholini ishsizlik, kasallik, nogironlik va qarilik kabi ijtimoiy xavflardan himoya qilish maqsadida kompleks ijtimoiy ta'minot tizimini shakllantirishi lozim. Beverij modeli keyinchalik ko'plab mamlakatlarda ijtimoiy himoya siyosatining institutsional asosi sifatida xizmat qilgan.

Ijtimoiy himoya tizimining fuqarolik huquqlari bilan bog'liq jihatlari T. X. Marshall tomonidan ilmiy jihatdan asoslangan. U o'zining "Citizenship and Social Class" asarida ijtimoiy huquqlar fuqarolik huquqlarining muhim tarkibiy qismi ekanligini ta'kidlab, ijtimoiy davlatning asosiy vazifalaridan biri fuqarolarga minimal ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash ekanligini qayd etadi. Marshallning mazkur konsepsiyasi ijtimoiy himoya tizimining jamiyatda ijtimoiy tenglik va barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyatini tushunishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Zamonaviy tadqiqotlarda esa ijtimoiy himoya qamrovini kengaytirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO) tadqiqotlarida dunyo aholisining katta qismi hali ham to'liq ijtimoiy himoya mexanizmlari bilan qamrab olinmagani ta'kidlanadi. Ayniqsa, norasmiy iqtisodiyotda faoliyat yurituvchi aholi, o'zini o'zi band qilgan shaxslar hamda kichik tadbirkorlar ko'p hollarda ijtimoiy sug'urta tizimi qamrovidan



tashqarida qolmoqda. Shu sababli ILO ijtimoiy himoya tizimini bosqichma-bosqich kengaytirishga qaratilgan "Social Protection Floors" konsepsiyasini ishlab chiqqan.

Xalqaro ijtimoiy ta'minot assotsiatsiyasi (ISSA) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ijtimoiy himoya qamrovini kengaytirish institutsional islohotlar hamda ma'muriy mexanizmlarni takomillashtirish orqali amalga oshirilishi mumkinligi ta'kidlanadi. ISSA metodologiyasiga ko'ra, ijtimoiy himoya qamrovini kengaytirish jarayoni aholi guruhlarini aniqlash, ijtimoiy xizmatlar tizimini tahlil qilish, iqtisodiy va moliyaviy mexanizmlarni shakllantirish hamda axborot-kommunikatsiya strategiyasini ishlab chiqish kabi bir nechta bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Jahon banki tadqiqotlarida esa ijtimoiy himoya tizimining inklyuzivligi va samaradorligini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu tashkilot tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ijtimoiy himoya tizimi qamrovini kengaytirishda raqamli texnologiyalarni joriy etish, ma'lumotlar bazalarini integratsiya qilish hamda ma'muriy jarayonlarni soddalashtirish muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi. Shuningdek, ijtimoiy sug'urta mexanizmlarini mehnat bozorining turli guruhlariga moslashtirish ijtimoiy himoya tizimining inklyuzivligini ta'minlashda muhim omillardan biri sifatida qaraladi.

Umuman olganda, iqtisodiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy himoya tizimi qamrovini kengaytirish zamonaviy ijtimoiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, norasmiy sektorda faoliyat yurituvchi aholini ijtimoiy himoya tizimiga jalb qilish, institutsional mexanizmlarni takomillashtirish hamda raqamli boshqaruv instrumentlarini joriy etish mazkur sohadagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ijtimoiy himoya qamrovini kengaytirish mexanizmlarini tahlil qilishda qiyosiy tahlil, institutsional tahlil hamda ilmiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar — Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO), Xalqaro ijtimoiy ta'minot assotsiatsiyasi (ISSA) va Jahon banki tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy himoya siyosatiga oid metodologik yondashuvlar tadqiqotning nazariy asosi sifatida xizmat qildi.

Tadqiqot doirasida ijtimoiy himoya tizimi qamrovini kengaytirish bo'yicha xalqaro amaliyot o'rganilib, turli mamlakatlarda qo'llanilayotgan institutsional mexanizmlar tahlil qilindi. Shu bilan birga, ijtimoiy himoya tizimi qamrovini kengaytirishning bosqichma-bosqich modeli hamda ijtimoiy xizmatlarni boshqarishda raqamli texnologiyalarni joriy etish tajribalari ilmiy jihatdan baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda ijtimoiy himoya tizimining qamrov darajasi global ijtimoiy siyosatning muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy himoya tizimi aholini iqtisodiy va ijtimoiy xavflardan himoya qilish, kambag'allikni qisqartirish hamda ijtimoiy tenglikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Biroq jahon miqyosida mazkur tizim bilan aholining barcha qatlamlari to'liq qamrab olinmagan. Xalqaro mehnat tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyo aholisining sezilarli qismi hali ham ijtimoiy himoya mexanizmlaridan to'liq foydalanish imkoniyatiga ega emas. Ayniqsa, kam daromadli mamlakatlar hamda rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda ijtimoiy himoya qamrovi nisbatan past darajada saqlanib qolmoqda.

Ijtimoiy himoya qamrovining cheklanganligi ko'p jihatdan mehnat bozori tuzilishi bilan bog'liq. Jahon iqtisodiyotida norasmiy sektor ulushining yuqoriligi ijtimoiy himoya tizimi qamrovini kengaytirishdagi asosiy institutsional to'siqlardan biri hisoblanadi. Xalqaro tadqiqotlar natijalariga ko'ra, ayrim mamlakatlarda mehnat bozorida band aholining yarmidan ortig'i norasmiy sektorda faoliyat yuritadi. Norasmiy iqtisodiyotda faoliyat yurituvchi shaxslar, odatda, ijtimoiy sug'urta tizimlari bilan to'liq qamrab olinmaydi, chunki ularning mehnat munosabatlari rasmiy tartibda ro'yxatdan o'tmagan bo'ladi.

Mazkur holat ijtimoiy himoya tizimida muayyan institutsional bo'shliqning shakllanishiga olib keladi. Mehnat bozoridagi ayrim guruhlar davlat ijtimoiy yordam dasturlari uchun yetarlicha kambag'al hisoblanmasligi, biroq ijtimoiy sug'urta tizimida ishtirok etish uchun barqaror daromad manbalariga ega emasligi sababli ijtimoiy himoya mexanizmlari bilan to'liq qamrab olinmaydi. Natijada ushbu aholi guruhlar iqtisodiy xavflar — ishsizlik, kasallik, mehnat qobiliyatini yo'qotish yoki daromadning keskin kamayishi kabi holatlarda ijtimoiy himoya tizimidan yetarlicha foydalana olmaydi.

Shu bilan birga, global iqtisodiy transformatsiya jarayonlari ham ijtimoiy himoya tizimi qamrovini kengaytirish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, frilans mehnat shakllarining kengayishi hamda mehnat bozorida yangi bandlik modellarining paydo bo'lishi an'anaviy ijtimoiy sug'urta mexanizmlarini qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda. Bunday sharoitda mehnat munosabatlarining an'anaviy shakllariga asoslangan ijtimoiy himoya tizimlari aholining barcha guruhlarini qamrab olishda yetarli darajada samarali bo'lmashligi mumkin.

Shu sababli ko'plab mamlakatlarda ijtimoiy himoya qamrovini kengaytirish davlat ijtimoiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan metodologik yondashuvlarga ko'ra, ijtimoiy himoya tizimi qamrovini kengaytirish institutsional islohotlar, moslashuvchan ijtimoiy sug'urta mexanizmlarini joriy etish, raqamli texnologiyalarni qo'llash hamda ma'muriy jarayonlarni soddalashtirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy himoya qamrovini kengaytirish bo'yicha xalqaro tajriba va institutsional mexanizmlarni tahlil qilish mazkur sohadagi ilmiy tadqiqotlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

1-jadval. Jahonda ijtimoiy himoya qamrovi darajasi (xalqaro ma'lumotlar asosida)

Ko'rsatkich	Dunyo bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich
Ijtimoiy himoya tizimi bilan to'liq qamrab olingan aholi	47 %
Hech qanday ijtimoiy himoyaga ega bo'lmagan aholi	53 %
Bolalar ijtimoiy himoya qamrovi	26 %
Ishsizlik nafaqasi bilan qamrov	18 %
Pensiya ta'minoti bilan qamrov	77 %

Manba: International Labour Organization, World Social Protection Report.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, jahon miqyosida ijtimoiy himoya tizimi bilan aholining barcha qatlamlari to'liq qamrab olinmagan. Xalqaro mehnat tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyo aholisining qariyb yarmidan ko'prog'i hali ham ijtimoiy himoya mexanizmlaridan to'liq foydalanish imkoniyatiga ega emas. Ayniqsa, bolalar hamda ishsiz aholi guruhlari ijtimoiy himoya tizimida nisbatan kam qamrab olingan qatlamlar hisoblanadi. Bu esa ijtimoiy siyosatni takomillashtirish hamda ijtimoiy himoya qamrovini kengaytirishga qaratilgan institutsional mexanizmlarni ishlab chiqish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.


Ijtimoiy himoya tizimi qamrovini kengaytirish masalasi xalqaro tashkilotlar faoliyatida muhim o'rin tutadi. Xususan, Xalqaro ijtimoiy ta'minot assotsiatsiyasi (ISSA) tomonidan ishlab chiqilgan metodologik yondashuvlar ijtimoiy himoya tizimini institutsional jihatdan takomillashtirish hamda aholining keng qatlamlarini mazkur tizimga jalb qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. ISSA tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, ijtimoiy himoya qamrovini kengaytirish jarayoni kompleks institutsional mexanizmlarga asoslanishi lozim bo'lib, ushbu jarayon bosqichma-bosqich amalga oshirilishi zarur.

ISSA metodologiyasiga ko'ra, ijtimoiy himoya qamrovini kengaytirish jarayoni, avvalo, mehnat bozoridagi aholi guruhlari aniqlash hamda ularning ijtimoiy himoya tizimi bilan qamrov darajasini tahlil qilishdan boshlanadi. Bu bosqichda ijtimoiy himoya tizimi bilan qamrab olinmagan yoki qisman qamrab olingan aholi guruhlari aniqlanadi. Ayniqsa, norasmiy sektorda faoliyat yurituvchi aholi, o'zini o'zi band qilgan shaxslar hamda kichik tadbirkorlar kabi guruhlar ijtimoiy himoya tizimidagi asosiy qamrov bo'shliqlarini tashkil etishi qayd etiladi.

Keyingi bosqichda mavjud ijtimoiy xizmatlar hamda ijtimoiy ta'minot mexanizmlari tahlil qilinib, ularning institutsional samaradorligi baholanadi. Bu jarayonda ijtimoiy himoya dasturlarining moliyaviy barqarorligi, ma'muriy boshqaruv tizimi hamda xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari o'rganiladi. Shu bilan birga, ijtimoiy himoya tizimining iqtisodiy modeli shakllantirilib, turli aholi guruhlari uchun moslashuvchan ijtimoiy sug'urta mexanizmlarini joriy etish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

ISSA metodologiyasida ijtimoiy himoya qamrovini kengaytirishning muhim bosqichlaridan biri ma'muriy jarayonlarni soddalashtirish hamda axborot-kommunikatsiya mexanizmlarini takomillashtirish hisoblanadi. Ma'muriy tartib-taomillarning murakkabligi ko'p hollarda aholining ijtimoiy himoya dasturlarida ishtirok etishiga to'sqinlik qiladi. Shu sababli ko'plab mamlakatlarda ijtimoiy xizmatlarni raqamlashtirish, ma'lumotlar bazalarini integratsiya qilish hamda ijtimoiy xizmatlardan foydalanish jarayonlarini soddalashtirish orqali ijtimoiy himoya qamrovini kengaytirishga qaratilgan institutsional islohotlar amalga oshirilmoqda.

ISSA tomonidan taklif etilgan mazkur yondashuv ijtimoiy himoya qamrovini kengaytirish jarayonini tizimli ravishda tashkil etish imkonini beradi. Ushbu modelga ko'ra, ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirish faqat moliyaviy resurslarni oshirish bilan cheklanib qolmasdan, balki institutsional boshqaruvni takomillashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda ijtimoiy xizmatlarni aholi uchun yanada ochiq va qulay qilish orqali amalga oshirilishi lozim.



1-rasm. ISSA metodologiyasiga ko'ra ijtimoiy himoya qamrovini kengaytirish bosqichlari

ISSA metodologiyasida belgilangan mazkur bosqichlar ijtimoiy himoya tizimi qamrovini kengaytirishning institutsional asosini shakllantiradi. Shu bilan birga, xalqaro amaliyot shuni ko'rsatadiki, mazkur yondashuvlar turli mamlakatlarda turlicha mexanizmlar orqali amalga oshiriladi. Quyida ayrim mamlakatlarda ijtimoiy himoya qamrovini kengaytirish bo'yicha qo'llanilayotgan institutsional mexanizmlar tahlil qilinadi.

Ijtimoiy himoya tizimi qamrovini kengaytirish bo'yicha xalqaro amaliyot turli mamlakatlarda turlicha institutsional mexanizmlar orqali amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlarda norasmiy sektor ulushining yuqoriligi ijtimoiy himoya tizimini modernizatsiya qilish va yangi institutsional yondashuvlarni joriy etishni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan, lordaniya va Braziliya tajribasi ijtimoiy himoya qamrovini kengaytirish bo'yicha samarali mexanizmlarni namoyon etuvchi amaliy misollardan biri hisoblanadi.

lordaniyada ijtimoiy himoya qamrovini kengaytirish maqsadida ijtimoiy sug'urta tizimida bir qator institutsional islohotlar amalga oshirilgan. Xususan, mamlakatda ijtimoiy sug'urta qonunchiligi qayta ko'rib chiqilib, ijtimoiy sug'urta ishtirokchilari doirasi kengaytirilgan. Natijada ish beruvchilar va rasmiy sektor xodimlari bilan bir qatorda uy bekalari, yakka tartibda ishlovchilar, qishloq xo'jaligi ishchilari hamda norasmiy sektorda faoliyat yurituvchi shaxslar ham ijtimoiy sug'urta tizimiga jalb qilingan. Bu islohotlar mehnat bozoridagi turli guruhlarni ijtimoiy himoya mexanizmlari bilan qamrab olish imkoniyatini sezilarli darajada oshirishga xizmat qilgan.

lordaniya tajribasining muhim jihatlaridan biri ijtimoiy sug'urta tizimida ishtirok etish shartlarini soddalashtirish hamda sug'urta badallari mexanizmlarini moslashuvchan qilishdan iborat. Bu esa norasmiy sektorda faoliyat yurituvchi aholi guruhlarning ijtimoiy sug'urta tizimida ishtirok etishini rag'batlantirgan. Shu bilan birga, ijtimoiy xizmatlarni boshqarishda raqamli texnologiyalarni joriy etish ijtimoiy himoya tizimi samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lgan.

Braziliya tajribasi ham ijtimoiy himoya qamrovini kengaytirishning samarali institutsional mexanizmlarini namoyon etadi. Mamlakatda milliy ijtimoiy ta'minot tizimi mehnat bozorini bir nechta toifalarga ajratgan holda turli ijtimoiy sug'urta mexanizmlarini joriy etgan. Xususan, mustaqil faoliyat yurituvchi shaxslar uchun moslashuvchan sug'urta badallari tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, ular o'z iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda badal miqdorini tanlash imkoniyatiga ega. Ushbu mexanizm norasmiy sektorda faoliyat yurituvchi aholini ijtimoiy sug'urta tizimiga jalb qilishda muhim rol o'ynagan.

Braziliyada ijtimoiy himoya qamrovini kengaytirishda ijtimoiy dasturlar va ijtimoiy sug'urta mexanizmlarining o'zaro integratsiyasi ham muhim ahamiyat kasb etgan. Ayniqsa, kam ta'minlangan aholini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ijtimoiy dasturlar hamda mehnat bozorida faol ishtirok etishni rag'batlantiruvchi iqtisodiy mexanizmlar ijtimoiy himoya tizimining inklyuzivligini ta'minlashga xizmat qilgan.

Umuman olganda, xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy himoya qamrovini kengaytirish faqat moliyaviy resurslarni oshirish orqali emas, balki institutsional islohotlar, moslashuvchan ijtimoiy sug'urta mexanizmlari hamda raqamli boshqaruv instrumentlarini joriy etish orqali amalga oshiriladi. Shu nuqtai nazardan, mazkur mamlakatlar tajribasi ijtimoiy himoya tizimini modernizatsiya qilish va aholining turli guruhlarni ijtimoiy himoya mexanizmlariga jalb qilish bo'yicha muhim amaliy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Xalqaro amaliyot shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy himoya tizimi qamrovini kengaytirish faqat moliyaviy resurslarni oshirish orqali amalga oshirilmaydi. Mazkur jarayon, avvalo, institutsional boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish, ijtimoiy sug'urta tizimini mehnat bozoridagi turli guruhlariga moslashtirish hamda ma'muriy jarayonlarni soddalashtirish bilan bevosita bog'liq. Shu sababli ko'plab mamlakatlarda ijtimoiy himoya qamrovini kengaytirishga qaratilgan islohotlar kompleks institutsional yondashuv asosida amalga oshirilmoqda.

2-jadval. Ijtimoiy himoya qamrovini kengaytirishning asosiy institutsional mexanizmlari

Institutsional mexanizm	Mazmuni
Moslashuvchan ijtimoiy sug'urta tizimi	Norasmiy sektor va o'zini o'zi band qilgan aholi uchun soddalashtirilgan sug'urta mexanizmlari
Raqamli ijtimoiy xizmatlar	Yagona ijtimoiy reyestr, elektron platformalar
Ma'muriy jarayonlarni soddalashtirish	Ariza berish va xizmat olish tartibini yengillashtirish
Iqtisodiy rag'batlantirish	Soliq imtiyozlari, subsidiyalar, davlat qo'llab-quvvatlashi
Axborot siyosati	Aholini ijtimoiy himoya imkoniyatlari haqida xabardor qilish

Ijtimoiy himoya tizimi qamrovini kengaytirishning muhim mexanizmlaridan biri moslashuvchan ijtimoiy sug'urta tizimini joriy etish hisoblanadi. An'anaviy ijtimoiy sug'urta modellari ko'p hollarda rasmiy sektorda faoliyat yurituvchi xodimlar uchun mo'ljallangan bo'lib, norasmiy sektorda faoliyat yurituvchi aholi uchun mazkur mexanizmlardan foydalanish imkoniyati cheklangan bo'ladi. Shu sababli xalqaro amaliyotda ijtimoiy sug'urta badallari tizimini mehnat bozoridagi turli guruhlarining iqtisodiy imkoniyatlariga moslashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Moslashuvchan sug'urta badallari, ixtiyoriy ishtirok mexanizmlari hamda soddalashtirilgan to'lov tartiblari norasmiy sektorda faoliyat yurituvchi aholini ijtimoiy himoya tizimiga jalb qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy himoya qamrovini kengaytirishda raqamli texnologiyalarni joriy etish ham muhim institutsional omil hisoblanadi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ijtimoiy xizmatlarni boshqarish jarayonini samarali tashkil etish, ma'lumotlar bazalarini integratsiya qilish hamda ijtimoiy xizmatlardan foydalanish jarayonlarini soddalashtirish imkonini beradi. Ko'plab mamlakatlarda ijtimoiy himoya xizmatlarini raqamlashtirish orqali aholining turli guruhlarini ijtimoiy himoya tizimiga jalb qilish imkoniyatlari kengaymoqda. Shu bilan birga, raqamli platformalar orqali ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish ma'muriy xarajatlarni kamaytirish hamda ijtimoiy xizmatlar shaffofligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirishda ma'muriy jarayonlarni soddalashtirish ham muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy xizmatlardan foydalanish tartib-taomillarining murakkabligi ko'p hollarda aholining ijtimoiy himoya dasturlarida ishtirok etishini cheklaydi. Shu sababli ko'plab mamlakatlarda ijtimoiy xizmatlarga murojaat qilish tartibini soddalashtirish, hujjatlar aylanmasi hajmini qisqartirish hamda ijtimoiy xizmatlardan foydalanish jarayonlarini avtomatlashtirishga qaratilgan institutsional islohotlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, ijtimoiy himoya qamrovini kengaytirishda iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlari ham muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, norasmiy sektorda faoliyat yurituvchi aholini ijtimoiy sug'urta tizimiga jalb qilish maqsadida davlat tomonidan soliq imtiyozlari, subsidiyalar hamda boshqa rag'batlantiruvchi iqtisodiy mexanizmlar joriy etilishi mumkin. Bu esa mehnat munosabatlarini rasmiylashtirishga rag'batni oshirish hamda ijtimoiy himoya tizimining inklyuzivligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ijtimoiy himoya qamrovini kengaytirish jarayoni ko'p bosqichli institutsional mexanizmlarga asoslanadi. Xalqaro tashkilotlar tadqiqotlarida mazkur jarayonning konseptual modeli aholi guruhlarini aniqlash, institutsional islohotlarni amalga oshirish hamda ijtimoiy xizmatlarni modernizatsiya qilish bosqichlarini qamrab olishi qayd etiladi. Ushbu yondashuvni tizimli ravishda ifodalash maqsadida ijtimoiy himoya qamrovini kengaytirishning konseptual modeli quyidagi sxema orqali ko'rsatiladi.



2- rasm. Ijtimoiy himoya qamrovini kengaytirish modeli¹

Umuman olganda, ijtimoiy himoya tizimi qamrovini kengaytirish institutsional islohotlar, raqamli boshqaruv instrumentlari, moslashuvchan ijtimoiy sug'urta mexanizmlari hamda ma'muriy jarayonlarni soddalashtirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Mazkur mexanizmlarni kompleks tarzda joriy etish ijtimoiy himoya tizimining samaradorligini oshirish, aholining turli guruhlarini ijtimoiy himoya mexanizmlari bilan qamrab olish hamda ijtimoiy siyosat barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy himoya tizimi qamrovini kengaytirish jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish hamda aholining iqtisodiy xavflarga nisbatan barqarorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon tajribasi tahlili ijtimoiy himoya tizimlari bilan aholining barcha qatlamlari to'liq qamrab olinmaganini, ayniqsa norasmiy sektorda faoliyat yurituvchi aholi guruhlarini ijtimoiy himoya mexanizmlaridan yetarli darajada foydalana olmayotganini ko'rsatadi. Bu esa ijtimoiy siyosatni takomillashtirish hamda ijtimoiy himoya qamrovini kengaytirishga qaratilgan institutsional islohotlarni amalga oshirish zarurligini anglatadi.

Tadqiqot davomida Xalqaro ijtimoiy ta'minot assotsiatsiyasi (ISSA) tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy himoya qamrovini kengaytirish modeli, shuningdek, Iordaniya va Braziliya kabi davlatlar tajribasi tahlil qilindi. Ushbu mamlakatlar amaliyoti shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy himoya tizimining samaradorligi uning institutsional boshqaruvi, raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi hamda mehnat bozorida turli guruhlar uchun moslashuvchan ijtimoiy sug'urta mexanizmlarining mavjudligi bilan bevosita bog'liq.

Tadqiqot natijalari asosida ijtimoiy himoya qamrovini kengaytirish bo'yicha quyidagi asosiy takliflarni ilgari surish mumkin:

- ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirishda norasmiy sektorda faoliyat yurituvchi aholini qamrab olishga qaratilgan moslashuvchan ijtimoiy sug'urta mexanizmlarini joriy etish;

¹ Muallif ishlanmasi.

- ijtimoiy xizmatlarni boshqarishda raqamli platformalar hamda yagona axborot tizimlaridan keng foydalanish orqali ijtimoiy himoya xizmatlarining shaffofligi va samaradorligini oshirish;
- ijtimoiy xizmatlardan foydalanish jarayonlarini soddalashtirish, ma'muriy tartib-taomillarni qisqartirish hamda aholining ijtimoiy himoya dasturlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish;
- ijtimoiy himoya tizimida iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlarini qo'llash orqali mehnat munosabatlarini rasmiylashtirishga va ijtimoiy sug'urta tizimida ishtirok etishga rag'batni kuchaytirish.

Umuman olganda, ijtimoiy himoya qamrovini kengaytirish kompleks institutsional islohotlar, raqamli boshqaruv mexanizmlarini joriy etish hamda aholining turli guruhlari uchun moslashuvchan ijtimoiy himoya modellarini shakllantirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Bu esa ijtimoiy siyosat samaradorligini oshirish, aholining ijtimoiy himoya darajasini mustahkamlash hamda barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. International Labour Organization. World Social Protection Report 2020–2022: Social Protection at the Crossroads – In Pursuit of a Better Future. – Geneva: International Labour Organization, 2021.
2. International Social Security Association. Extending Social Security Coverage: Good Practices Guide. – Geneva: ISSA, 2022.
3. World Bank. Social Protection and Jobs Strategy 2012–2022. – Washington, DC: World Bank, 2022.
4. Barr, N. The Economics of the Welfare State. 5th ed. – Oxford: Oxford University Press, 2012.
5. Esping-Andersen, G. The Three Worlds of Welfare Capitalism. – Princeton: Princeton University Press, 1990.
6. Devereux, S., Sabates-Wheeler, R. Transformative Social Protection. – Brighton: Institute of Development Studies, 2004.
7. International Labour Organization. Social Protection Floors Recommendation (No. 202). – Geneva: ILO, 2012.
8. World Bank. Uzbekistan Poverty and Equity Assessment. – Washington, DC: World Bank, 2023.
9. Holzmann, R., Hinz, R. Old-Age Income Support in the 21st Century: An International Perspective on Pension Systems and Reform. – Washington, DC: World Bank, 2005.
10. International Social Security Association. Administrative Solutions for Coverage Extension. – Geneva: ISSA, 2021.
11. Xusanova, X. T., Tadjiyeva, S. X. Adresnaya sotsialnaya zashchita v Uzbekistane: evolyutsiya razvitiya i sovremennost // Molodoy uchyoniy. – 2013. – №2 (44). – S. 290–293.
12. Narbayeva, T. K. Model povysheniya effektivnosti sistemy sotsialnoy zashchity zhenshchin v Uzbekistane // Sotsialnyye issledovaniya. – 2022. – №3. – S. 102–109.
13. Atamuradov, Sh. A. Innovatsion tadbirkorlik faoliyatini venchur fondlari orqali moliyalashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. Iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2021.
14. Atamuradov, Sh. A. Korxonaning innovatsion faoliyatini strategik rejalashtirishda Boston Consulting Group (BCG) matritsasiidan foydalanish // Ekonomika i finansy (Uzbekistan). – 2022. – №12 (160). – B. 43–50. DOI: 10.34920/EIF/VOL_2022_ISSUE_12_6.
15. Atamuradov, Sh. A. Jahon amaliyotida venchur kapitali bozorining tashkiliy subyektlari // Ekonomika i finansy (Uzbekistan). – 2023. – №1 (161). – B. 58–65. DOI: 10.34920/EIF/VOL_2023_ISSUE_1_8.
16. Atamuradov, Sh. Financing of innovative projects through venture funds and the types of risk involved in it // Economics and Innovative Technologies. – 2023. – Vol. 11, No. 1. – P. 24–35. https://doi.org/10.55439/EIT/vol11_iss1/a3

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100